

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH
DAVLAT QO'MITASI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQRISH VA JORIY ETISHNING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

I-QISM

2022 yil 12-14 may



Samarqand, 2022-yil.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

**“QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQRISH VA
JORIY ETISHNING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI”
MAVZUSIDAGI**

**Professor-o‘qituvchilar hamda doktorantlarning Respublika
ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari
TO‘PLAMI**

I-qism

Ushbu konferensiya to‘plamiga samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida 2022-yil 12-14-may kunlari o‘tkazilgan **“Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqboldagi vazifalari”** mavzusidagi professor-o‘qituvchilar hamda doktorantlar tomonidan taqdim etilgan materiallar kiritilgan.

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

B.f.d., professor X.B.Yunusov, v.f.d., professor A.S.Daminov, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i D.D.Aliyev, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi xodimi R.X.Daniyerov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari: A.Ro‘ziyev, O.Achilov, O.Maxmadiyarov, Sh.Azamatov, G‘. Obriyev

To‘plamga kiritilgan materialdagi ma‘lumotlar to‘g‘riligi uchun
mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

Tahrir hay‘ati.

2-SHU'BA. VETERINARIYA SOHASIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLAR – YUQUMLI, YUQUMSIZ VA PARAZITAR KASALLIKLARNI OLDINI OLISH VA SAMARALI DAVOLASH BO'YICHA ERISILGAN YUTUQLAR HAMDA MAVJUD MUAMMOLAR.

1	Tursagatov J.M., Dilmurodov N.B. Har xil tabiiy sharoitdagi qorako'l qo'ylar postnatal ontogenezida stilopodiy suyaklari chiziqli o'Ichamlarining o'zgarish dinamikasi	139
2	Safarov A.A., Abdinabiyev O.B., Mo'minov B.F., Ergashov Sh.J. O'zbekiston qishloq va shahar itlari gelmint faunasining taksonomik xilma-xilligi	142
3	Usmonova X.J., Ibodullayev H Qoramollar trixofitiya kasalligini qo'zg'atuvchisi va patogenezini	144
4.	Nurgaliyeva J.S. Serologik testlar yordamida pasterella serotiplarini o'rganish	146
5.	Ruziyev Z.E., Allazov A.S., Klichov O.I. Yirik shoxli hayvonlar leykozi (leucosis)	148
6.	Абдуллаев Ш.М. Саноатлашган паррандачиликда иммунопрофилактика самарадорлигини оширишнинг идиотипик тармоқлардан фойдаланиш технологияси.	150
7.	Абдуллаев Ш.М., Рўзикулов Р.Ф., Шопулатова З.Ж., Саруханиян Г.Д. Саноатлашган тартибда бройлер жўжаларини иссиқ иқлимли ўлкаларда боқишда паррандалар пьюкасл касаллигининг самарали иммунопрофилактикаси	154
8.	Ruzikulova U.X., Shapulatova Z.J. Qoramollarning virusli diareya kasalligi	156
9.	Ibragimov F.M., Rasulov Sh.Sh., Suyunov R.U., Murtozayev N. Qoramollar mastitida sutni veterinariya sanitariya ekspertizasi	158
10.	Бабаева Ш.А. Туяқушларнинг клинико-физиологик ҳолатига “panaroot-98” препаратининг таъсири	160
11.	Мирсаидова Р. Морфофизиологические особенности кроссов кур, разводимых в узбекистане и проблемы иммунопрофилактики	162
12.	Qo'ldoshev.O.U., Avazov O.S. Sigirlar mahsuldorlik ko'rsatkichlariga mikroiklimning ta'siri	165
13.	Исламов Ф.П. Самарқанд вилояти хўжаликларида имисанни самарадорлиги	166
14.	Bayqulov A.K., Raxmonov F.X., Eshimov D. Experimental termik kuyishlarda xitozan hosilalarining reparative regeneratsiyasining tadqiqotlari	168
15.	Davlatov R.B., Rustamov B.S., Abduraimov A.A. Kurkalar gistomonozi davolashda qo'llanilgan preparatlarni qonning ayrim morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri	170
16.	Xushnazarov A.X., Davlatov R.B. Quyon eymeriozini davolashda vazuril preparatining samaradorligi	173
17.	Курбанов Ш.Х. Қўйларнинг аноптоцефалитозлари	175
18.	Ibragimov F.B., Rasulov Sh.Sh. Qoramollar fassioliozida hayvonlardan olinadigan so'yish mahsulotlarining xavfsizligi va sifat ko'rsatkichlari	177
19.	Соатов О., Эргашева М., Ҳақбердиев П.С. Ҳайвонларнинг ларваль цестодозлари ва уларнинг олдини олиш чора-тадбирлари	179
20.	Ҳақбердиев П.С., Ғойипова М. Отларнинг гельминтоз касалликларини тарқалиши ва даволаш чоралари	182
21.	Taylakov T.I., Usmanov I. G'. Mayda shoxli hayvonlarning anoplotsefalyatozlarini tarqalishi.	184
22.	Ачилов О.О Қорамоллар эхинококкозида гўшт ҳамда паренхиматоз органларнинг сифати ва хавфсизлиги (Адабиётлар таҳлили)	186
23.	Салимова И.Ю., Қосимов Ж.Ҳ. Пиретроидли препаратлар ва улар таъсиридаги ўзига хос хусусиятлар	189
24.	Ibragimov F.B., Ilyosov Z.I. Asalari vorroatozi	190
25.	Rasulov O'I., Bobonazarov E., Buronov A.N., Komolov F. Qoramollarni piroplazmidozlardan saqlab qolish davr talab	192
26.	Murodov S., Xoliqov S.F., Xushnazarova M.I. Bruselyoz kasalligida sutni sanitariya jihatidan baholash va veterinariya-sanitariya ekspertizasi	194
27.	Салимова И.Ю., Мухторов У.И. Замонавий пестицидларни қишлоқ хўжалик амалиётидаги аҳамияти	195
28.	Murodov S., Xoliqov S.F. Go'shtni bakteriologik tekshirish va sanitariya gigiyenik holatini aniqlash	196
29.	Eshquvvatov R N Qoramollarning yuqumli rinotraxeit kasalligining epizootologiyasi va oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish	197

Profilaktikasi. Piroplazmoz va babeziozni tarqatuvchi *Boophilus calcaratus* va teyleriozni tarqatuvchi – *Hyalomma anatolicum*, *Hyalomma detritum* kanalarining faol hayotiy (yilning iliq fasllarida) davri bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli unga qarshi kurashishni birgina yilning iliq fasllarida emas, balki yilning salqin va sovuq fasllarida ham doimiy ravishda olib borish maqsadga muvofiq sanaladi.

Buning uchun yilning salqin tushgan faslidan oq ferma va uning atrofini obodonlashtirish, kanalarining rivojlanishi uchun qulay bo'lgan biotoplarni yo'qotish, kelgusida qoramollar boqiladigan yaylovlarda sanatsiya ishlarini olib borish lozim. Qish paytida qoramollar boqiladigan binolarni go'nglardan tozalash, devorlarini suvash va oqlash, hamda madaniylashtirish tadbirlarining eng muhimi bo'lib hisoblanadi. Teyleriozni oldini olishda «Teyleriozga qarshi suyuq kultural vaktsina» dan yilning salqin (dekabr, yanvar, fevral) oylarida har 1 bosh qoramolning teri ostiga 1,0 ml.dan qo'llash tavsiya etiladi. Yilning iliq kunlari kirib kelishi bilan oq kanalariga qarshi akaritsid preparatlardan biri bilan qo'llanmasi asosida qoramollar yuvib, chumiltirilib turiladi. Piroplazmidozlarni kimyoviy usulda profilaktika qilish uchun har 15 kunda 1 marta qoramolning har 100 kg tirik vazni hisobiga 5,0 ml.dan polikarb, uzbekarb preparatlaridan qoramol teri ostiga qo'llaniladi.

Xulosa. Yilning issiq fasliga kelib veterinariya-sanitariya talablariga mos inshootlar qurish, yozgi ayvonlarning ustini issiqlik o'tkazmaydigan qamish va shox shabbalar bilan yopish maqsadga muvofiq. Kasalliklarni davolashda 1 kg tirik vazni hisobiga 2 mg/kg dan diamidin, 5 mg/kg dan berenil, azidin yoki qoramolni har 100 kg tirik vazniga 2 ml dan imizol yoki imisan preparatlarini qo'llash tavsiya etiladi, qoramollarni profilaktika qilish uchun har 15 kunda 1 marta 100 kg tirik vazni hisobiga 5,0 ml.dan polikarb, uzbekarb preparatlaridan qoramol teri ostiga qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'afurov A.G., Davlatov R.B., Rasulov O.I. Qishloq xo'jalik hayvonlarining protozo kasalliklari "Zarafshon" nashriyoti -107 b.

2. Imomov N. Qashqadaryo viloyati hududlarida poliamidin-p preparatini veterinariya amaliyotiga joriy qilish. Veterinariya 2011, № 5 – 13-14.

UDK:619:619.02:614.4

MURODOV S.M, XOLIKOV S.F., XUSHNAZAROVA M.I. BRUSELYOZ KASALLIGIDA SUTNI SANITARIYA JIHATIDAN BAHOLASH VA VETERINARIYA-SANITARIYA EKSPERTIZASI

Annotatsiya. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqaror rivojlantirish, fuqoralarni sog'ligi va ha'itini yaxshilash, hamda mamlakat mustaqilligini barqaror saqlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Maqolada brusellëz bilan kasallangan hayvonlardan olingan mahsulotlarni sanitariya jihatidan baholash va ularni iste'molga yaroqli va yaroqsizligini aniqlash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Epizotik, brusella, agglyutinatsiya, xalqali reaksiya, patologoanatomik, pasterizatsiya.

Kirish: Respublikamiz aholisini arzon va sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan taminlash dolzarb vazifalar qatorida muxim o'rin egallay turibdi. Chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha belgilab berga ko'rsatmalarini bajarishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda chorva mollarining yuqumli kasalliklari, jumladan brusellëz kasalligi katta to'siqlardan biri hisoblanadi. Brusellëz yuqumlilik darajasi bo'yicha V- guruxiga kirib o'ta xavfli yuqumli-allergik kasallik hisoblanadi.

Hayvonlarda brusellëzning o'ziga xos klinik belgilari bu ommaviy abort, bepustlik, qisir qolish, endometrit hamda hayvonlar maxsuldorligining pasayishi bilan namoyon bo'ladi. Brusellyoz kasalligi hayvonlar va odamlarda surunkali kechadigan yuqumli kasallikdir. Kasallik qo'zg'atuvchisi brusellalar bo'lib, uning bir qancha tiplari mavjud. Odamlar uchun xavflilari bu qoramol, qo'y va cho'chqa tiplari hisoblanadi va ular odamlarda kasallik chaqiradi. Ulardan odamlar uchun eng xavflisi qo'y tipi bo'lib, u faqat qo'y suti va go'shtida bo'lmasdan qoramollar mahsulotida ham bo'lishi kuzatiladi. Qimzning kislotaligi 120-140°T bo'lib uning tarkibidagi alkohol 3,5-3,7 % bo'lganda brutsellalar uch kungacha o'zining tirikligini saqlaydi.

Sutning tarkibidagi brutsellalar 60° haroratda 30 daqiqa pasterizatsiya qilinganda halok bo'ldi. Veterinariya-sanitariya ekspertizasining qoidalariga muvofiq, brusellyoz kasalligi bilan kasallangan hamda kasallikning klinik belgilari aniqlan bo'lgan sog'in sigirlardan olingan sut bevosita shu xo'jalikning o'zida 5 daqiqa qaynatilishi lozim. Hayvonlar serologik reaksiyasi yordamida tekshirilganda musbat reaksiya ko'rsatgan, lekin kasallikning klinik belgilari aniqlan bo'lmagan hayvonlardan olingan sutni oziq-ovqat sifatida ishlatish, yoki bunday sutdan boshqa turli sut mahsulotlari tayyorlashdan oldin 70° haroratda 30 daqiqa pasterizatsiya qilinishi shart. Qo'ychilik va echkichilik xo'jaliklarida brusellyoz kasalligi uchrab turadigan bo'lsa, bu xo'jaliklarda ularni sog'ish mumkin emas. Brusellyoz kasalligiga qarshi vaktsina bilan emlangan sigirlarning suti 6 oygacha pasterizatsiya qilinishi kerak, bunda podaning orasida oxirgi marta bola tashlagan sigirlar hisobga olinib, ular tezda podadan ajratilishi shart. Sutning tarkibidagi brutsellalarni antigen bilan halqali reaksiyasi hamda agglyutinatsiya reaksiyalari yordamida aniqlash mumkin.

Lekin bu reaksiyalarni og'iz suti, hamda sigir tug'gandan keyin birinchi 12 kungacha olingan, sigirning sutdan chiqishidan oldin olingan, mastit bilan kasallangan sigir suti, brutsellyoz kasalligiga emlangan, hamda tananing harorati yuqori bo'lgan sigirlarning suti bilan qo'shish mumkin emas. Ko'pgina tekshirishlar natijasida shu narsa aniqlanganki, kislotaligi 32-33° T dan oshgan og'iz sutini, mastit kasalligi bilan kasallangan sigirning suti halqali reaksiya yordamida tekshirganda to'g'ri natija bermaydi. Olingan sut namunalari fenol yoki formalin bilan konservatsiya qilinib, barobariga suv bilan suyultirilgan bo'lsa, halqali reaksiya bilan tekshirish mumkin.

Material va metodlar: Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqaror rivojlantirish, fuqoralarni sog'ligi va hayotini yaxshilash, hamda mamlakat mustaqilligini barqaror saqlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Odamlar brusellyoz kasalligi bilan kasallangan hayvonlar bilan aloqada bo'lganda, kasallangan hayvonlardan olinadigan go'sht va sut mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazmaslik natijada ularni zararsizlantirmasdan istemolga chiqarilishi orqali kasallanadi.

Kasallik qo'zg'atuvchisi tashqi muhitga ancha chidamli bo'lib sovutilgan sutda 6-8 kun, sariyog'da 41-67, pishloqda 42 kungacha o'z tirikligini saqlaydi. Veterinariya-sanitariya ekspertizasi qoidalariga binoan kasallikni klinik belgilari namoyon bo'lgan sigirlardan olingan sut xo'jalikning o'zida besh daqiqa qaynatilgandan keyin, sutni qayta ishlash korxonalariga chiqariladi. Serologik reaksiyalarda musbat natija bergan, lekin klinik belgilari namoyon bo'lmagan sigirlardan olingan sutni esa 70S haroratda 30 daqiqa pasterizatsiya qilingandan so'ng oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ruxsat etiladi.

Natija va ularning taxlili: Sutda brusellyoz quzg'atuvchilarini (brusellalar) xalqali va agglutinatsiya reaksiyalarini qo'yish yordamida aniqlanadi. Go'sht va go'sht mahsulotlarini sanitariya jihatidan baholashda, veterinariya sanitariya ekspertizasi qoidalariga binoan, go'sht korxonalarida quydagi chora tadbirlarni bajarilishi asosida, so'yish ishlari olib boriladi. So'yish uchun nosog'lom xo'jaliklardan olib kelingan va kasallik belgilari namoyon bo'lgan yoki serologik reaksiyalarga musbat natija ko'rsatgan mollar maxsus so'yish sexlarida yoki sog'lom hayvonlar so'yilgandan so'ng, umumiy so'yish sexlarida so'yiladi.

Serologik reaksiyalarda brusellyozga musbat natija bergan, lekin klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlar kuzatilmagan qoramol va cho'chqa go'sht tanasi hech qanday cheklovlarisiz chiqariladi. Kasallik qo'zg'atuvchisini qo'y tipi aniqlangan yirik shoxli mollar va cho'chqalarni so'yishdan keyingi olingan go'sht va go'sht mahsulotlari, go'sht korxonalaridan xom chiqarilishi taqiqlanadi. Kasallikni klinik belgilari namoyon bo'lgan va patologoanatomik o'zgarishlar aniqlangan qoramol va cho'chqalarni go'shti va ichki organlari qaynatish orqali zararsizlantirilgandan so'ng iste'molga chiqariladi.

Brusellyozni klinik belgilari ko'ringan va so'yishdan keyin ichki organlar hamda go'shtida patologoanatomik o'zgarishlar aniqlangan sigir va qo'ylarni sut bezlari texnik utilizatsiya qilinadi yoki yo'qotiladi.

Xulosa. Odamlar orasida brusellèz kasalligini tarqalishini oldini olishni asosiy omili, chorva mollarini parvarishlashda veterinariya qonunchiligiga to'liq rioya qilish. Sut va go'sht mahsulotlarini iste'molga chiqarishda ekspertiza ishlarini to'liq va to'g'ri o'tkazilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.S.Murodov. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining vetsanekspertizasi, qaytaishlashtexnologiya asoslari va standartizatsiyasi. O'quv qo'lanma. Samarqand. 1997 yil.

2.S.M.Murodov. Veterinariya –sanitariya ekspertizasi. Darslik. Samarqand. 2006 yil.

3.Qishloq xo'jalik mahsulotlarining veterinariya sanitariya ekspertizasi, qayta ishlash texnologiyasi, gigienasiva standartizatsiyasi. Darslik. Samarqand-2013

UDK

Салимова И.Ю., Мухторов У.И.

ЗАМОНАВИЙ ПЕСТИЦИДЛАРНИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК АМАЛИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ

Аннотация: Мақолада пестицидларни қишлоқ хўжалиги ва ветеринария амалиётида кенг қўлланиши туфайли улар қолдиқ миқдорларини атроф муҳит жойларига тушиши оқибатида одамлар ва ҳайвонлар организмда турли заҳарланишларни келиб чиқишига сабаб бўлиши тўғрисидаги маълумотлар келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: пестицид, сунъий пиретроид, стомазан, кумуляция, UD_{50} , мг/кг.

Аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш ва уни эҳтиёж даражасида ишлаб чиқариш инсоният олдида турган асосий муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Ҳозирги кунда ер юзи аҳолиси бир кунда 200-250 минг кишига, бир йилда эса 70 млн тага кўпаймоқда.

Бугун дунё ишлаб чиқариш амалиётида буғдой хом ашёси, ёғоч ва энергия манбаларидан кейинги учинчи ўринни эгаллайди. Бугунги кунда ўсимлик ҳамда чорвачилик истеъмол маҳсулотларини бир меъёردа ишлаб чиқарилишига тўсқинлик қилаётган 8,5 минга яқин касаллик қўзғатувчилари, 10 минг хашарот ва каналар, 2 мингта яқин бегона ўтлар ҳамда 1,5 минг нематодлар мавжуд. Умуман олганда эса уларни 100 мингдан ошиқ хавф келтирувчи турлари мавжуд бўлиб, шундан 400 таси асосий зарар келтирувчилар ҳисобланади. Бундай зараркунанда турларини бартараф этиш мақсадида